

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARIDA KIBERSPORT, DRON VA
ROBOT TEXNOLOGIYALARI YO‘NALISHIDAGI SPORT TURLARINI
RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida kibersport, dron va robot texnologiyalari yo‘nalishidagi zamonaviy sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish tizimini yaratish, musobaqalar va turnirlarni tizimli ravishda o‘tkazish orqali iqtidorli harbiy xizmatchilarni aniqlash, saralash hamda ularning qobiliyatlari ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashish, professional kibersportga yo‘naltirish, axborot texnologiyalari sohasi uchun salohiyatli kadrlar tayyorlash va ularni sohaga jalb qilish ishlarini yanada kengaytirish maqsadida qaror qilaman:

I. Maqsadlar

1. Quyidagilar Qurolli Kuchlarda kibersport, dron va robot texnologiyalari yo‘nalishidagi zamonaviy sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirishning asosiy maqsadlari etib belgilansin:

(a) kibersport, dron va robot texnologiyalari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish orqali yuqori darajali tahliliy, texnik va strategik fikrlash qobiliyatiga ega harbiy xizmatchilarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash, ularning salohiyatini kompleks baholash hamda maqsadli tayyorlash va rivojlantirish tizimini yaratish;

(b) axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, dronlarni boshqarish, robototexnika va harbiylashgan raqamli tizimlar uchun istiqbolli harbiy xizmatchilarni saralash, elektron axborot tizimlari yordamida ularning hisobni yuritish va bosqichma-bosqich tayyorlash orqali strategik ahamiyatga ega kadrlar zaxirasini shakllantirish;

(v) iqtidorli ishtirokchilarning individual qobiliyatlari va ixtisoslashuvi asosida ularni professional kibersport, harbiy-texnik bo‘linmalar, IT va harbiylashgan raqamli tizimlar bilan bog‘liq lavozimlarga maqsadli yo‘naltirishni tashkil etish;

(g) harbiy xizmatni zamonaviy texnologiyalar, innovatsion faoliyat va raqamli kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali yoshlar uchun jozibador, nufuzli va intellektual rivojlanish imkoniyatiga ega kasb sifatida shakllantirish;

(d) raqamli tahdidlarni to‘g‘ri anglaydigan, zamonaviy texnologiyalarni samarali boshqara oladigan va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga qodir harbiy mutaxassislar tarkibini shakllantirish orqali mudofaa qobiliyatining texnologik barqarorligini mustahkamlash;

(j) kibersport — intellektual sport turi, dron va robot texnologiyalarini harbiy-amaliy innovatsion yo‘nalish sifatida amalga oshirish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyaning kibersport, dron va robot texnologiyalari yo‘nalishidagi zamonaviy sport turlari bo‘yicha musobaqani (keyingi o‘rinlarda — musobaqa)ni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha takliflariga rozilik berilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarda (keyingi o‘rinlarda — vazirlik va idoralar) kibersport, dron va robot texnologiyalari yo‘nalishidagi sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

II. Tashkiliy chora-tadbirlar

4. Musobaqalar quyidagi yo'nalish va bosqichlarda o'tkaziladi:

(a) yo'nalishlar:

(i) kybersport yo'nalishi — jamoaviy tarzda virtual, ya'ni kompyuter va raqamli muhitda o'tkaziladigan, ishtirokchilarning strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, vaziyatni baholash, shaxsiy tarkibni jipslash, hamkorlik masalalarini amalga oshirish hamda liderlik va boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan musobaqa;

(ii) dron texnologiyalari yo'nalishi — uchuvchisiz uchish apparatlarini boshqarish, navigatsiya, vaziyatni baholash, aniq vazifalarni bajarish, xavfsiz parvozni ta'minlash hamda amaliy mashqlar orqali ishtirokchilarning texnikaviy va amaliy ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan musobaqa;

(iii) robot texnologiyalari yo'nalishi — robototexnika vositalarini loyihalash, dasturlash, boshqarish va belgilangan texnik vazifalarni bajarish bo'yicha ishtirokchilarning muhandislik, algoritmik va innovatsion qobiliyatlarini baholashga qaratilgan musobaqa;

(b) bosqichlar:

(i) birinchi bosqich — vazirlik va idoralarda har yili avgust oyida "Harbiy qism (muassasa) komandiri (boshlig'i) kubogi" ichki musobaqasi;

(ii) ikkinchi bosqich — har yili oktabr oyida "Harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni kubogi" musobaqasi;

(iii) uchinchi bosqich — har yili dekabr oyida "Mudofaa vaziri kubogi" musobaqasi o'tkaziladi.

5. Musobaqada g'olib bo'lgan harbiy xizmatchilar quyidagicha rag'batlantiriladi:

(a) birinchi bosqichda g'olib bo'lgan jamoaning har bir a'zosi biryo'la to'lanadigan 10 million so'm pul mukofoti hamda jamoa uchun harbiy qism (muassasa) komandiri (boshlig'i) kubogi;

(b) ikkinchi bosqichda g'olib bo'lgan jamoaning har bir a'zosi biryo'la to'lanadigan 30 million so'm pul mukofoti hamda jamoa uchun harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni kubogi;

(v) uchinchi bosqichda g'olib bo'lgan jamoaning har bir a'zosi biryo'la to'lanadigan 50 million so'm pul mukofoti hamda jamoa uchun mudofaa vaziri kubogi.

6. Belgilab qo'yilinki:

(a) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, mazkur qarorda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish, ishtirokchi vazirlik va idoralar faoliyatini hamda o'zaro hamkorligini muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi;

(b) musobaqalarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik vositalar, maxsus texnik qurilmalar va dasturiy ta'minotlar birinchi bosqichda ishtirokchi vazirlik va idoralarning o'zlarida mavjud moddiy-texnik baza hisobidan, ikkinchi va uchinchi bosqichlarda esa Mudofaa vazirligining o'z ixtiyorida mavjud moddiy-texnik baza hisobidan ta'minlanadi;

(v) musobaqalar g'oliblarini biryo'la to'lanadigan pul mukofotlari bilan mukofotlash vazirlik va idoralarga ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida, vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

7. Musobaqada ishtirok etuvchi hamda saralab olingan harbiy xizmatchilar hisobini yuritish maqsadida xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan yagona elektron reyestr joriy etilsin. Bunda:

(a) vazirlik va idoralar o'z tizimidan kybersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi zamonaviy sport turlari bo'yicha musobaqada ishtirok etgan hamda saralab olingan harbiy xizmatchilarning idoraviy elektron hisobini (ichki reyestrini) yuritadi;

(b) musobaqalarning birinchi va uchinchi bosqichlarida ishtirok etgan hamda g'olib bo'lgan harbiy xizmatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish, markazlashtirilgan holda yuritish va idoralararo muvofiqlashtirish Mudofaa vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

8. Musobaqalar natijalariga ko'ra yuqori natijalarga erishgan hamda alohida iqtidor va salohiyatini namoyon etgan harbiy xizmatchilardan iborat maqsadli kadrlar guruhi shakllantirilib, ularni rag'batlantirish, kasbiy rivojlantirish hamda xizmat faoliyatini rejalashtirish maqsadida quyidagi qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilsin:

(a) harbiy xizmatchilarni axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, uchuvchisiz uchish apparatlari, robototexnika va raqamli harbiy tizimlar sohalari bo'yicha maqsadli magistratura va doktorantura ta'lim dasturlariga, shu jumladan, xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga tanlov asosida yuborish;

(b) ilg'or xorijiy davlatlarning ixtisoslashgan ta'lim markazlari, ilmiy laboratoriyalari va texnologik platformalarida qisqa va o'rta muddatli malaka oshirish kurslarida, treninglar va sertifikatlash dasturlarida ishtirok etishini ta'minlash;

(v) ushbu harbiy xizmatchilarning kasbiy salohiyati, egallagan bilim va ko'nikmalarini inobatga olgan holda xizmat faoliyatini rejalashtirishda hamda xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishida ustuvorlik berish, zarur hollarda, lavozimga tayinlash va xizmatda ilgarilash jarayonlarini tezlashtirilgan tartibda amalga oshirish;

(g) harbiy sohada qo'llanishi mumkin bo'lgan raqamli texnologiyalar, innovatsion yechimlar, dasturiy mahsulotlar va intellektual tizimlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy, tajriba-konstruktorlik hamda eksperimental loyihalarga jalb etish, shuningdek, ularni amalga oshirishda ustuvor ishtirokchi sifatida belgilash.

9. Mudofaa vazirligi vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

(a) uch oy muddatda musobaqalarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqsin hamda belgilangan tartibda tasdiqlasin;

(b) to'rt oy muddatda musobaqalarni o'tkazish belgilangan hududlarning moddiy-texnika bazasi inventarizatsiya qilinishini, zarur hollarda, uning samarali va maqbul taqsimlanishini ta'minlasin;

(v) musobaqalar yakuniga ko'ra yuqori natijalarga erishgan hamda alohida iqtidorini namoyon etgan harbiy xizmatchilarning kasbiy salohiyati va ixtisoslashuvini inobatga olgan holda ularni axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, uchuvchisiz uchish apparatlari va robototexnika sohalari bilan bog'liq faoliyat yo'nalishlariga jalb etish, shuningdek, xizmat faoliyatini rejalashtirish va xizmat pog'onalari bo'yicha rivojlantirishda ustuvorlik berish choralari ko'rsin;

(g) vazirlik va idoralarda kibersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi zamonaviy sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlasin.

III. Qaror ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

10. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul hamda shaxsan javobgar etib mudofaa vaziri Sh.G. Xalmuxamedov belgilansin.

11. Qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.V. Maxmudov zimmasiga yuklansin.

ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarda kibersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha

"YO'L XARITASI"

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ul ijrochilar
1.	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida kibersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlari bo'yicha musobaqa o'tkazish	1. Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruhni shakllantirish.	2026-yil iyun	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi,

	tartibi to'g'risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish.	2. Musobaqa o'tkazish yuzasidan qo'shma qaror loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash.		Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya
2.	Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning musobaqa o'tkazilishi belgilangan harbiy qism va muassasalarining moddiy-texnika bazasini shakllantirish va mustahkamlash.	1. Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaratish bo'yicha asoslangan takliflarni tayyorlash. 2. Mavjud qurilmalar, zaruriy dasturiy majmualar va kompyuter vositalari bilan jihozlash hamda dron musobaqalarini o'tkazish bo'yicha jihozlash ishlarini amalga oshirish.	2026-yil iyun 2026-yil iyul	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya
3.	Yosh mutaxassislarni kybersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlariga qiziqtirish hamda mazkur sport turlarini rivojlantirish maqsadida oliy harbiy ta'lim muassasalarida kybersport klublarini tashkil etish hamda ushbu klublar o'rtasida musobaqalar o'tkazish.	1. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida kybersport klublarini tashkil etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish. 2. Kybersport klubida kybersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlari bo'yicha musobaqalarni o'tkazish dasturini va nizom loyihasini ishlab chiqish. 3. Har bir vazirlik va idoralarda ichki tartibda tasdiqlash va yo'lga qo'yish.	2026-yil iyul 2026-yil sentabr 2026-yil dekabr	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya
4.	Harbiy xizmatchilar kybersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlarini mustaqil o'rganish uchun turli xil axborot materiallarini va interaktiv o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish.	1. Kybersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlari bo'yicha turli xil axborot materiallari va interaktiv o'quv qo'llanmalarini shakllantirish. 2. O'quv qo'llanma ishlab chiqish va joriy etish.	2026-yil may Doimiy	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya
5.	Harbiy xizmatchilar o'rtasida kybersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlari jamoalarini shakllantirish maqsadida yashirin iqtidor egalarini saralab olish.	1. Harbiy xizmatchilar o'rtasida mazkur sport turlariga qiziqish bildirgan va qobiliyatlarini saralash mezonlarini ishlab chiqish hamda har bir vazirlik va idoralarda ichki tartibda tasdiqlash va yo'lga qo'yish.	2026-yil iyun	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi,

		2. Saralab olingan harbiy xizmatchilardan tegishli jamoalarni shakllantirish.	Doimiy	Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya
6.	Harbiy xizmatchilar tarkibi bilan kibersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlarini o'rganish bo'yicha qisqa muddatli kurslarni tashkil etish.	1. Harbiy xizmatchilar bilan kibersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlarini o'rganish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari dasturini ishlab chiqish. 2. O'qitiladigan toifalarni aniqlash, o'qitish reja-jadvalini har bir vazirlik va idoralarda ichki tartibda tasdiqlash va yo'lga qo'yish.	2026-yil may Reja-jadvalga muvofiq	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya
7.	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarda kibersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlari bo'yicha musobaqada ishtirok etuvchi harbiy xizmatchilar reyestrini yuritish uchun yagona elektron platforma ishlab chiqish va undan foydalanish.	1. Harbiy xizmatchilar reyestrini yuritish elektron platformasini texnik topshiriq asosida ishlab chiqish va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazish. 2. Platformada sportchilar ro'yxatini shakllantirish. 3. Platformada sportchilar reytingini yuritish. 4. Reyestr ma'lumotlari asosida ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi, natijalari va istiqbolini baholash hamda kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha tahliliy hisobotlar tayyorlash. 5. Sportchilarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, ularning xalqaro va mintaqaviy turnirlarda ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.	2026-yil dekabr 2027-yil yanvar Doimiy Doimiy Doimiy	Mudofaa vazirligi